

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djahongir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

HISTORICAL AND SPIRITUAL ANALYSIS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR'S LEGACY

Qahhorov Shohjaxon Shodiyor ogli

Gulistan State Pedagogical Institute,
Faculty of Social and Humanitarian Sciences,
History Program, Group 35-23

Abstract. This article presents a historical-concrete analysis of the life, political activity, and intellectual-spiritual legacy of the great statesman, poet, and thinker Zahiriddin Muhammad Babur. The study highlights the multifaceted nature of Babur's personality, as well as the significance of themes such as longing for the homeland, historical memory, and national identity in his literary work. The Baburnama is evaluated as an important historical, geographical, ethnographic, and cultural source, and Babur's legacy in the global scientific discourse is thoroughly examined.

Keywords: Baburnama, historical memory, national identity, patriotism, classical literature, Timurid era, spiritual heritage, historical-concrete approach.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI

Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
Tarix yo'nalishi 35-23-guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk davlat arbobi, shoir va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, siyosiy faoliyati hamda ilmiy-ma'naviy merosi tarixiy-konkret yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Bobur shaxsiyatining ko'p qirrali mohiyati, uning ijodida vatan sog'inchi, tarixiy xotira va milliy o'zlik masalalarining tutgan o'rni ochib beriladi. "Boburnoma" asari muhim tarixiy, geografik, etnografik va madaniy manba sifatida baholanib, Bobur merosining jahon ilmiy muomalasidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Boburnoma, tarixiy xotira, milliy o'zlik, vatanparvarlik, mumtoz adabiyot, temuriylar davri, ma'naviy meros, tarixiy-konkret yondashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N07>

Kirish. Dunyodagi har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, milliy o'zligi va ma'naviy salohiyatini belgilab beruvchi buyuk tarixiy shaxslar mavjud bo'lib, ana shunday siymolar jamiyat taraqqiyotida burilish yasagan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ma'naviy-ma'rifiy yuksalishlar va madaniy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ularning hayot yo'li, faoliyati va qoldirgan ilmiy hamda badiiy merosi nafaqat o'z zamonasining mahsuli sifatida, balki keyingi avlodlar tafakkuri, dunyoqarashi va tarixiy xotirasini shakllantiruvchi muhim omil sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, temuriylar sulolasining yorqin namoyandasi, buyuk davlat arbobi, tarixchi va mumtoz shoir Zahiriddin Muhammad

Bobur shaxsiyati va ijodini o'rganish masalasi bugungi zamonaviy tarixshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati va ilmiy-ma'naviy merosini o'rganishga qaratilgan har bir ilmiy tadqiqot, nashr etilgan asar yoki amalga oshirilgan ma'rifiy tashabbus Bobur shaxsiyatining murakkab va ko'p qirrali mohiyatini yanada teran anglashga xizmat qiladi. Bu jarayon Bobur merosining zamonaviy ilmiy muomalada faol qo'llanilishiga, uning tarixiy, badiiy va g'oyaviy-estetik qarashlarini yangi avlod ongiga singdirishga imkon yaratadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori [1:1] Bobur merosini o'rganish, targ'ib etish va ilmiy muomalaga keng joriy etishda muhim huquqiy va ma'naviy asos bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda mamlakatimiz milliy taraqqiyotning yangi bosqichi – Uchinchi Renessans sari intilayotgan bir sharoitda Bobur Mirzoning bebaho ilmiy va ma'naviy merosini chuqur tahlil qilish va ommalashtirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zahiriddin Muhammad Bobur merosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazmun va yo'nalish jihatidan serqirra bo'lib, ular tarixiy, adabiy, filologik, madaniy va manbashunoslik yondashuvlari asosida tadqiq etilgan. O'zbek boburshunosligining shakllanishida va rivojlanishida Abdurauf Fitratning ilmiy qarashlari muhim o'rin tutadi. Fitrat Boburni milliy uyg'onish timsoli sifatida baholab, uning ijodini tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglashning muhim manbasi sifatida talqin qilgan [2:1]. Uning yondashuvi Bobur shaxsini mustamlakachilik davri mafkurasi doirasidan chiqarib, milliy tafakkur kontekstida qayta baholashga xizmat qilgan.

Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayev tomonidan tayyorlangan "Boburnoma"ning ilmiy nashri esa Bobur asarlarini filologik jihatdan chuqur tahlil qilish, matnning asl nusxalarini solishtirish va ilmiy izohlar bilan boyitish imkonini berdi [7:196]. Mazkur nashr Bobur tilining badiiy-uslubiy xususiyatlarini ochib berish bilan birga, o'zbek adabiy tilining tarixiy rivojida Bobur ijodining tutgan o'rnini ilmiy asosda yoritdi. Vahob Rahmonov o'z tadqiqotlarida Bobur shaxsiyatiga kompleks yondashib, uni nafaqat shoir va tarixchi, balki faqih, tilshunos, davlat arbobi va mutafakkir sifatida baholaydi [6:3]. Bu yondashuv Bobur merosining ko'p qirrali mohiyatini ochib berishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Xorijiy boburshunoslik doirasida Anneta Beverij, N.I.Ilminskiy, R.R.Arat, V.Vyatkin kabi olimlarning tarjima va tadqiqotlari "Boburnoma"ning jahon ilmiy muomalasiga kirib borishida muhim rol o'ynadi. Ularning ishlari Bobur asarlarining umuminsoniy tarixiy va madaniy qadriyatga ega ekanini tasdiqlab, Sharq va G'arb ilm-fani o'rtasida muhim ilmiy ko'priq vazifasini bajardi [4:201]. Mazkur maqolada tarixiy-konkretlik, qiyosiy tahlil, manbashunoslik va adabiyotshunoslik metodlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida Bobur asarlarining matnlari, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari solishtirma va tahliliy asosda o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Bobur merosi o'z mazmuniga ko'ra nihoyatda keng qamrovli bo'lib, "Boburnoma" nafaqat tarixiy, balki geografik, etnografik, iqtisodiy va madaniy manba sifatida ham yuksak ilmiy ahamiyatga ega.

Muhokama. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijon shahri yaqinida temuriyzodalar oilasida tug'ilib, murakkab siyosiy vaziyat hukmron bo'lgan davrda voyaga yetdi. Otasi Umarshayx Mirzoning kutilmagan vafoti Boburni juda yoshligida davlat boshqaruvi mas'uliyatini zimmasiga olishga majbur etdi. Bu holat Bobur shaxsining erta

shakllanishiga, uning siyosiy tafakkuri, irodasi va matonatining kamol topishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, Bobur nafaqat jasoratli sarkarda, balki yuksak zakovat va ilmga chanqoqlik fazilatlarini bilan ajralib turgan shaxs bo'lgan [2:162].

Boburning ilm-fan va adabiyotga bo'lgan qiziqishi, mumtoz ta'lim tizimi asosida olgan bilimlari uning ijodkor sifatida shakllanishida muhim omil bo'ldi. Fiqh, tarix, adabiyot, arab va fors tillarini mukammal egallagan Bobur she'riy ijodida samimiylilik, falsafiy mushohada, vatanparvarlik va muhojirlik iztiroblarini chuqur badiiy ifoda etdi [3:6]. Uning ruboiy va g'azallarida vatandan judo bo'lish fojiaiy kechinmalar bilan uyg'unlashib, tarixiy xotira va milliy o'zlik masalalari yetakchi g'oya sifatida namoyon bo'ladi.

Boburning "Mubayyin" va "Harb ishi" kabi ilmiy-amaliy asarlari uning davlat boshqaruvi, huquqiy va harbiy masalalardagi chuqur bilimni ko'rsatadi. Bu asarlar Bobur tafakkurining faqat badiiy soha bilan cheklanmaganini, balki ilmiy-amaliy yo'nalishda ham yuksak darajada bo'lganini tasdiqlaydi. "Boburnoma"ning ko'plab tillarga tarjima qilinishi esa asarning jahon miqyosidagi ilmiy va madaniy ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi [4:201]. Zahiriddin Muhammad Bobur merosining yana bir muhim jihati shundaki, u shaxs va davr munosabatini o'rganishda noyob tarixiy-model vazifasini bajaradi. Bobur yashagan XV-XVI asrlar Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda siyosiy parokandalik, sulolaviy nizolar va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik kuchaygan davr bo'lib, ana shu murakkab sharoit Bobur shaxsiyati va faoliyatining shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lgan. Bobur o'z asarlarida ushbu tarixiy voqealarni faqatgina hukmdor nuqtai nazaridan emas, balki bevosita jarayonlar ishtirokchisi va guvohi sifatida tasvirlaydi. Shu bois "Boburnoma"dagi tarixiy ma'lumotlar rasmiy solnomalardan farqli ravishda subyektiv kechinmalar, ichki mulohazalar va tanqidiy qarashlar bilan uyg'unlashgan holda beriladi.

"Boburnoma"da siyosiy voqealar bilan bir qatorda ijtimoiy munosabatlar, aholi turmush tarzi, xo'jalik faoliyati, sug'orish tizimlari, savdo yo'llari va iqtisodiy aloqalar haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Xususan, Boburning Afg'oniston va Hindiston hududlarida sug'orma dehqonchilik, karvon savdosi va mintaqalararo iqtisodiy munosabatlar haqida bergan tavsiflari o'sha davr iqtisodiy tarixini tiklashda muhim manbashunoslik ahamiyatiga ega [5:1737]. Bu jihat Bobur merosining faqat adabiy yoki siyosiy manba emas, balki kompleks tarixiy tadqiqotlar uchun asos bo'la olishini ko'rsatadi.

Bobur shaxsiyatini tarixiy jihatdan tahlil qilishda uning ichki ruhiy ziddiyatlariga e'tibor qaratish ham muhimdir. Tadqiqotchilar qayd etganidek, Bobur bir tomondan yuksak axloqiy-me'yoriy qarashlarni ilgari surgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'z asarlarida shaxsiy zaifliklari va hayotiy ikkilanishlarini ham ochiq tan oladi. Bu holat uni idealizatsiyalangan tarixiy qahramon emas, balki murakkab, real tarixiy shaxs sifatida talqin qilish imkonini beradi [7:7]. Aynan mana shu samimiylilik va ochiqlik Bobur ijodining ilmiy va badiiy qadrini yanada oshiradi.

Natijalar. Bobur ijodida axloqiy, estetik va tarbiyaviy qarashlar ham muhim o'rin egallaydi. Uning she'riy va nasriy asarlarida adolat, vijdon, sabr-toqat, mas'uliyat va insoniy burch masalalari yetakchi g'oya sifatida ilgari suriladi. Zamonaviy tadqiqotchilar Bobur qarashlarini Sharq mutafakkirlarining umumiy axloqiy-falsafiy an'analari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilib, uning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini bugungi yosh avlod tarbiyasida samarali qo'llash mumkinligini ta'kidlaydilar [10:528]. Bu jihat Bobur merosining zamonaviy ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar uchun ham dolzarb ekanini ko'rsatadi [11:156]. Shuningdek, Bobur ijodida tabiat va atrof-muhitga bo'lgan munosabat alohida e'tiborga loyiq.

“Boburnoma”da tog’lar, daryolar, iqlim, o’simlik va hayvonot dunyosining batafsil tasviri berilishi Boburning tabiatshunoslikka oid qarashlari shakllanganini ko’rsatadi. Bu jihatlar Sharq mutafakkirlarining ekologik tafakkuri doirasida baholanib, ularning zamonaviy ekologik madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi [12:346]. Bobur tabiatni faqat fon sifatida emas, balki inson hayoti va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog’liq hodisa sifatida tasvirlaydi.

Bobur merosini o’rganishda uni mutlaq ijobiy yoki mutlaq salbiy qiyofada talqin qilish ilmiylik talablariga zid hisoblanadi. U feodal jamiyat vakili sifatida o’z davrining ijtimoiy-me’yoriy qarashlaridan to’liq xoli bo’la olmagan. Ayrim tarixiy manbalarda Boburning shaxsiy hayotiga oid qarama-qarshi holatlar qayd etilishi [8:30] uning murakkab va ziddiyatli shaxs bo’lganini tasdiqlaydi. Aynan mana shu ziddiyatlar Bobur shaxsiyatini tarixiy-konkret yondashuv asosida chuqur o’rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Zahiriddin Muhammad Bobur merosi bugungi tarixshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari uchun nafaqat boy faktologik manba, balki shaxs va davr munosabatini tahlil qilishda muhim metodologik asos vazifasini ham bajaradi. Bobur hayoti va ijodini xolis, kompleks va zamonaviy ilmiy yondashuv asosida o’rganish yosh avlod ongida sog’lom tarixiy tafakkurni shakllantirish, milliy o’zlik va tarixiy xotirani mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda yosh barkamol avlodni tarbiyalash, ularning tarixiy tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirish, yuksak ma’naviy qadriyatlar hamda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirishda Zahiriddin Muhammad Boburning boy ilmiy va ma’naviy merosi muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bobur ijodi yoshlarni vatanparvarlik, milliy g’urur, tarixiy xotira va ma’naviy mas’uliyat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi noyob manba bo’lib, unda shaxsiy kechinmalar bilan umumxalq manfaatlarini, individual taqdir bilan tarixiy jarayonlar o’zaro uzviy bog’langan holda namoyon bo’ladi. Tarixiy taqdir Zahiriddin Muhammad Boburni vatandan yiroqda yashashga majbur qilgan bo’lsa-da, u umrining oxirigacha ona yurt sog’inchi bilan yashagan va bu holat uning ijodida chuqur va barqaror g’oyaviy asos sifatida aks etgan. Bobur hayoti va faoliyati shuni ko’rsatadiki, siyosiy mag’lubiyatlar yoki majburiy hijrat shaxsning tarixiy va ma’naviy ahamiyatini pasaytirmaydi. Aksincha, ana shunday murakkab sinovlar Bobur ijodida vatan sog’inchi, tarixiy xotira va milliy o’zlik masalalarining yanada teranlashishiga olib kelgan hamda uning ijodini umuminsoniy darajaga ko’targan. Bobur shoh sifatida ham, ijodkor va mutafakkir sifatida ham takrorlanmas tarixiy shaxsdir. U o’z hayot yo’li, siyosiy faoliyati va adabiy merosi orqali insoniyat tarixida sabr-toqat, matonat, iroda va jasorat timsoliga aylangan. Vatandan yiroqda kechgan murakkab hayot sharoitlariga qaramay, Bobur buyuk saltanat barpo etishga, shu bilan birga, o’zining nodir badiiy va ilmiy salohiyatini to’liq namoyon etishga muvaffaq bo’lgan. Bu holat uning shaxsiyati va ijodida amaliy faoliyat bilan yuksak tafakkur uyg’unlashganini yaqqol ko’rsatadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur merosining jahon tamaddunidagi o’rni ham alohida e’tiborga loyiqdir. U davlat arbobi sifatida Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida muhim iz qoldirgan bo’lsa, adib va mutafakkir sifatida o’z asarlari bilan jahon adabiyoti, tarixshunosligi va madaniyati rivojiga munosib hissa qo’shgan. “Boburnoma” singari asarlar Sharq tarixiy-nasriy tafakkurining yuksak namunasi bo’lib, ularni o’rganish nafaqat muayyan davr tarixini tiklash, balki shaxs va davr munosabatini tahlil qilishda ham muhim metodologik asos

vazifasini bajaradi. Shu bois, Bobur shaxsiyatini faqat tarixiy hodisa yoki adabiy obraz sifatida emas, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun ma'naviy ibrat maktabi sifatida talqin etish ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Uning merosini idealizatsiya qilish yoki mutlaq tanqidiy ruhda baholash ilmiylik talablariga zid bo'lib, Bobur hayoti va ijodini tarixiy-konkret, xolis va kompleks yondashuv asosida o'rganishgina to'g'ri ilmiy xulosalarga olib keladi. Hozirgi davrda Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy va ma'naviy merosini yosh avlodga tizimli, zamonaviy pedagogik va ilmiy metodlar asosida yetkazib berish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, ziyolilar qatlamining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tarixiy xotirani mustahkamlash va milliy o'zlikni anglash jarayonida Bobur merosi nafaqat o'tmishni anglash vositasi, balki kelajakni barpo etishga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy tayanch sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540-yilligini keng nishonlash to'g'risidagi" qarori. 2023-yil 25-yanvar, PQ-20-son.
2. Хайриддин Султон. Бобурнома. Т.: Шарқ. 1997.
3. V.Rahmonov. Turkiy adabiyot durdonalari. Zahiriddin Muhammad Bobur. Т.: O'zbekiston. 2022.
4. B.Aminov, F.Hasanov. Buyuk ajdodlarimiz. Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi ilmiy nashriyoti. 2010.
5. K.O.Sheraliyevich. et al. The Role of Studying the History of Irrigated Farming Culture in the Work of Yahya Ghulomov //Naturalista Campano. – 2024. – Т. 28. – №. 1. – С. 1735-1740.
6. V.Rahmonov. Turkiy adabiyot durdonalari. Т.: O'zbekiston. 2022.
7. П.Шамсиев, С.Мирзаев. Захириддин Мухаммад Бобур. Т.: УзФан. 1960.
8. Канимкулов О. Ш. ЯХЪЯ ГУЛЯМОВ-КРУПНЫЙ УЧЕНЫЙ-ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ИСТОРИИ ОРОШАЕМОЙ ЗЕМЛЕДЕЛЬЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 9-3. – С. 29-31.
9. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION / N. Jumaboyev. – International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – № 4. – P. 1489-94.
10. Jumaboyev, Nabi Pardaboyevich. "SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID MA'NAVIY VA AXLOQIY QARASHLARI." Oriental Art and Culture 2.4 (2021): 526-531.
11. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Education of Young People in Eastern and Modern Spirit Taking Historical Values into Account." Innovative Science in Modern Research (2023): 156-157.
12. Жумабоев, Наби Пардабоевич. "ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИДАГИ АХЛОҚИЙ, ЭСТЕТИК ВА ЭКОЛОГИК ҚАРАШЛАРИ." ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES 1 (2019): 346.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).